



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA PANTAMIMA VA MIMIKA ORQALI BOLALAR ZEHNINI OSHIRISH

Ishquvatova Zaynab Ro'ziyevna

Surxondaryo viloyati Termiz tumani

14-Maktabgacha ta'lim tashkiloti

+998941389000

zaynabiwquvatova@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10215778>

ARTICLE INFO

Received: 21th November 2023

Accepted: 28th November 2023

Online: 29th November 2023

KEY WORDS

Pantamima, mimika, MTT, maktab, boshlang'ich, tarbiya, texnologiya, ta'lim, muloqot, fikrlash, ko'nikma, qobiliyat, muassasa, o'yin, ruhiy, tabiat, jamiyat, xotira, idrok, tafakkur, tasavvur, sezgi, qali, savodxonlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida pantamima va mimika orqali bolalar zehni oshirish, ijodiy fikrlashini shakllantirish, o'yin orqali bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, savodxonligini oshirish hamda aqliy, tarbiyaviy jarayonlaridagi namoyon bo'luvchi qobiliyatlarining pantomima va mimika jarayonida shakllanishi haqida batafsil yoritib o'tilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti, shuningdek, bolalar bog'chasi, **boshlang'ich maktab** yoki **o'yin maktabi** sifatida ham tanilgan, bolalarga boshlang'ich maktabda majburiy ta'limni boshlashdan oldin erta bolalik davridagi ta'limni taklif qiladigan ta'lim muassasasi. U davlat yoki xususiy bo'lishi mumkin va davlat mablag'lari hisobidan subsidiyalanishi mumkin. Demak, o'rganishning eng muhim yillari tug'ilishdan boshlanadi. Bola hayotining dastlabki uch yili tilni o'zlashtirish, ijtimoiylashuv va o'rganishga munosabat uchun asos yaratishi juda muhimdir. Dastlabki yillarda va ayniqsa, dastlabki 3-5 yil ichida odamlar juda ko'p ma'lumotni o'zlashtira oladi. Miya birinchi yillarda eng tez o'sadi. Rivojlanishga mos dasturlarga ega yuqori sifatli va yaxshi tayyorlangan o'qituvchilar va maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning ta'lim natijalarini yaxshilashga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birgalikda, maktabgacha ta'limni qamrab oladigan rivojlanish sohalari turlicha. Biroq, odatda quyidagi asosiy mavzular taklif etiladi.

- Shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va hissiy rivojlanish
- Muloqot (shu jumladan imo- ishora tili), gapirish va tinglash
- Dunyo bilimi va dunyoni tushunish
- Ijodiy va estetik rivojlanish
- Matematik tushuncha
- Jismoniy rivojlanish
- Jismoniy salomatlik
- O'yin
- Jamoaviy ish



- O'z-o'ziga yordam ko'rsatish ko'nikmalari
- Ijtimoiy ko'nikmalar
- Ilmiy fikrlash
- Savodxonlik

Maktabgacha ta'lim tizimi tuzilma (ma'muriyat, o'quvchilar soni, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o'qituvchi nisbati, xizmatlar), jarayon (o'quv muhit sifati, tarbiyachi va bolaning o'zaro aloqasi va boshqalar) va moslashtirish (standartlar, o'quv dasturi, baholash) komponentlariga rioya qiladi. O'quv dasturi turli yoshdagilar uchun mo'ljallangan. Masalan, 10 ga qadar hisoblash odatda to'rt yoshdan keyin amalga oshiriladi.

Pantomima (yun. pantomimos — faqat tana harakati bilan o'ynovchi aktyor, taklid) — sahna san'ati turi. Unda badiiy obraz so'zsiz, mimika, imo-isho-ra, gavdani har maqomga solish orqali yaratiladi. Pantomima.Yevropada Yunoniston va Rimda, Osiyoda Xitoy, Hindiston, Xorazm, Baqtriyada miloddan avvalgi 5—4-asrlarda yuzaga kela boshlagan. O'rta asrlarda Pantomima. katta bir san'atga aylanib, ko'pgina janrlarda (drama, fojia, ertak, pamflet kabi) qo'llandi. Ba'zan musiqa, ashula, hatto deklamatsiya (suxanpardoqlik) bilan qo'shib olib boriladi.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar barcha sohada qo'llanilgani kabi maktabgacha ta'lim sohasida ham qo'llanilmoqda. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalar bolalarga aqliy tarbiya berishda qo'llanilishi o'z samarasini bermoqda. "Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan informasiyaning 70 foizini 5-yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, ana shu davrda uning qalbida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi". Bola ta'lim tarbiyasi, aqliy yetuk, barkamol bo'lib yetishishi xususida sharq mutafakkirlari merosiga nazar tashlasak unda quyidagi fikrlarni uchratishimiz mumkin.

A.N.Farobiy "Aqlli deb shunday kishilarni aytamizki, unda o'tkir zexn, idrok bo'lishi bilan birga u fazilatli ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va tortishga qaratgan bo'lmogi lozim. Shunday odamnigina aqlli va butun fikr yurituvchi deb atash mumkin" – deb ta'kidlaydi.

A.A.I.Sinoning aql, aqliy tarbiyaga oid qarashlari deyarli barcha asarlarida o'z ifodasini topgan. Olim aqlli 3 bosqichga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, yaxshi xali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan. Ikkinchi bosqichda, tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolalarning aqli, uchinchi bosqichda aqliy shakllarni va ularga muvofiq xissiy obrazlarni egallagan inson tasvirlanadi. I.Sino aql deganda, insonning tug'ma iste'dodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatlarini tushunadi.

Aqlni 2 kategoriyaga bo'ladi: Nazariy aql – borliqni umumiy narsalarni idrok etish. Amaliy aql – buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatlar.

Ma'rifatparvar alloma A.Avloniy inson aql-zakovati va ma'naviy kamolotining yo'llari ustida tuxtalib shunday deb yozadiki: "Ilm dunyoning izzati, oxiratining sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z axvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zexnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz- mevasiz daraxt kabidur" deb ta'kidlab o'tgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashda, ularning zejnini oshirishda mashg'ulotlarning o'rni va axamiyati kattadir . Mashg'ulotlar orqali samarali



natijalarga erishish ilgor zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali yuzaga keladi. Demak, mashg'ulotlarga misol tariqasida bolalar bilan pantomima va mimika orqali o'yinlar otkazish, ularning bilish jarayonlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etar ekan. Hamda, bolada bir qator ijobiy yondashuv va qiziqishlarni ham keltirib chiqaradi, Mas'uliyatli bo'lib, qiziqishi ancha ortadi. Tarbiyalanuvchining yoshi, ruxiyati, dunyoqarashi, bilimi, faollik darajasi va boshqalar e'tiborga olinadi. Tarbiyachining bu jarayon tashkilotchisi, raxbari, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va maxoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta'sir ko'rsatish, bolani eng ko'p darajada faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qo'llab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Zamonaviy texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida – o'yin, mashg'ulot, sayr davomida qo'llash yaxshi samara beradi. Biz hozir zamonaviy texnologiyalarni o'yin va mashg'ulot davomida qo'llash usulini ko'rib chiqamiz. Ma'lumki o'yin faoliyati bolalar xayotining mazmunini tashkil etish bilan birga, ularni atrofni, qolaversa, barcha yaqinlarini tanishga yordam beradi, kelgusi o'quv faoliyatiga ruxan, aqlan tayyorlab boradi. Ayni paytda o'yin bola uchun ermak, quvonch manbai hamdir. Bolaning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini hamda dunyoqarashini shakllantirishga, o'stirishga xizmat qiladigan vositadir. Bu jixatlar bolaning bundan buyongi xayotida muxim o'rin tutadi. Kichkintoylarda o'yinga bo'lgan qiziqish shu darajadagi, ba'zilar faqat o'yin bilan band bo'lg'isi keladi. «Keling, birga o'ynaylik», «Dadajon, onajon, o'yinchoq olib bering» kabi iltijolarni ko'p eshitishimiz mumkin. Bu takliflarga ko'nib, hamma ishimizni bir daqiqa nariga surib, charchog'imiz, tashvishlarimizga qaramay: «Bupti, qaysi o'yinni o'ynaymiz» desak bormi, bir onda biz yo'lovchi, xaydovchi, o'quvchi, ochko'z buri, qo'rqqoq quyon, ukolli doktor va boshqa personajlarga aylanib, ularning quvonchlariga sabab bo'lamiz. Bola bilan o'ynar ekanmiz, biz ham o'z oldimizga maqsad qo'yib borishimiz kerak. O'yin davomida albatta biz ularning xoxishi, istagi bo'yicha harakat qilishimiz, bizning shu paytdagi asosiy ishimiz bolaning aytganlarini bajarib, uni xushnud qilish, vaqtini chog'lash va shu asosda muayyan ko'zlagan niyatimizni amalga oshirib, bolani ma'lum maqsadga yo'naltirishdir. Masalan, biz bola idrokini rivojlantirishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'yishimiz mumkin. Idrokni o'stirishga qaratilgan o'yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko'ra taxlil qilish malakasini shakllantiradi. Aynan shuning uchun ham bolalarni, bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun pantomima va mimika orqali ularning tafakkur va tasavvurlarini kengaytirish, do'stlar orasida fikrlash qobiliyatini jamoaviy shakllantirish uchun ham biz pantomima va mimika orqali oyin shaklida ularni yanada rivojlantirsak, kutgan natijaga ega bo'lamiz.



Har bir bola yoshligidan aqliy jihatdan to'g'ri rivojlanishi uchun unga sog'lom turmush tarzi kundalik foydali narsalarni o'rgatadigan va ijobiy tasvirlarni ularning xotirasida qoldiradigan tarbiya shartlari kerak. O'yin bolalar uchun juda muhim va aynan ular uchun juda qadrli hamdir. Agar bolaning kundalik turmush tarzida yuqorida keltirganimizdek foydali va aqlni charxlaydigan qiziqarli o'yinlar bilan shug'ullanmasa, u tez va yaxshi rivojlana olmaydi. Uch yoshdan katta bolalar o'z o'yinlarida ularni o'rab turgan odamlarning hayotini aks ettiradi. Agar biz bolalar o'yinlariga nazar tashlasak, ularning o'yinlarida ular hayotda kuzatadigan kattalarning munosabatlari, g'amxo'rliklari va tajribalarini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan: Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'qish, mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loydan shakllar yasash) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fanida bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.



Maktabgacha yoshdagi bolalar va aqliy tarbiya berishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.
2. Bilishga doir ruhiy jarayonni rivojlantirish.
3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyati, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.
4. Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish.

Bilishga doir ruhiy jarayon — sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir. Tevarak-atrofnii bilish sezish va idrok etishdan boshlanadi. Ularning rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, borliqni bilib olish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun uni bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish zarur. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatni, zehni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ularning sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularni hisobga olgan holda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib bolalar tevarakatrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy



bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi, voqealardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarni ajrata oladigan bo'lib qoladilar. Ularda o'quv faoliyatining dastlabki ko'rsatkichlari shakllanadi. Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotida pantomima va mimika orqali bolalar zehni oshirish juda foydali hisoblanadi. Pantomima va mimika, insonning fizikaviy ifodalash usullari orqali fikrlarni va hissiyotlarni ifodalashga yordam beradi. Bu usullar bilan bolalarga o'zlarini ifodalash, o'z fikrlarini va hissiyotlarini boshqalar bilan o'zaro almashish imkoniyati beriladi. Shuningdek, pantomima va mimika orqali bolalar o'z fikrlarini ifodalashi, o'zi o'ylaganlarini boshqalarga yetkazish va kommunikatsiya qilishni o'rganishadi. Bu, ularning o'zlashtirilgan va ijodiy fikrlarini jamiyat bilan ulashishni, o'z fikr-mulohazalarini boshqalarga yetkazishni oshiradi. Bunday amaliyotlar o'zlashtirilgan o'quv usullari va qo'llanmalar orqali o'tkazilishi mumkin. Pantomima va mimika o'quvlari, bolalar o'rtasidagi kommunikatsiyani yaxshilash, ularning iqtidorlarini va muhokamalarini rivojlantirishda ko'mak beradi. Bunday tashkilotlarda bolalar bilan ishlash uchun professional pedagoglar va psixologlar foydalaniladi. Ular amaliyotlarni o'rganish, o'zlashtirish va o'z-o'zini ifodalashni oshirishda yordam beradilar.

References:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Maktabgacha_ta%CA%BClim
2. <https://uniwork.buxdu.uz>
3. <https://e-library.namdu.uz>
4. Toshpo'latov, A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/16154> DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8001510>
5. <https://fayllar.org/maktabgacha-yoshdagi-bolalarning-aqliy-rivojlanishi.html>